

O‘SMIR PSIXIKASI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING AHAMIYATI.

ADPI o‘qituvchi

Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi.
ADPI talabasi Abdullayeva Nodira Yo‘lchievna

Annostatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davri haqida tushuncha va o‘smirlarning anatomik, fiziologik, psixik xususiyatlari, ularning hayotiga ommaviy axborot vositalarining ta’siri sabablari haqida bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, psixik, fiziologik, anatomik xususiyatlar, ta’lim va tarbiya, internet va axborot vositalari

O‘smirlik davri inson shaxs sifatida kamol topishida alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907- son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 12-iyulda “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 577-sonli qaror qabul qilindi. Zero ta’lim olish uchun tarbiyaning o‘rni juda muhim sanaladi. Tarbiya esa oiladan boshlanadi.

Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida “Talimni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi” deb bejizga aytmagan. [1. 21-b.] Farzand tug‘ilibdiki, mustahkam oilada chiroyli tarbiya olsa, hayoti davomida duch keladigan qiyinchilik, inqirozlarda qiynalmaydi. To‘g‘ri tarbiya olgan bola maktabga kelganida o‘qituvchida qiyinchilik tug‘dirmaydi. O‘z hohishi bilan bilim oladi. Ta’lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

O‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarning hulq-atvor xususiyatlari; o‘smirlar 10-15 yoshlardan 14-15 yoshlarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi yoshlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan biroz ustunroqdir. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘rish oldinroq namoyon bo‘lmoqda.

“Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas”- ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim harakteridir. [2. 4-b.]

O‘smirlar hozir ilgariga nisbatan tez yetilishiga bir nechta sabablarni E.G.’G‘oziyevning “Ontogenez psixologiyasi kitobida keltirib o‘tgan.

-1) fan va texnikaning rivojlanishini, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o‘zgarayotgani;

2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o‘smirlar ongliligi darajasi ko‘tarilgan;

3) o‘gil va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiyat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi;

4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;

5) o‘smirlar bilan ishlashda g‘oyaviy- siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;

6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demakratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;

7) o‘quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o‘z-o‘zini boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani; [3. 143-b.]

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha sabablar o‘rinli. Bobo-buvijonlarimiz yoshlik davrlarini eslashganda avvalgi qiyinchiliklarni hozirgi zamon yoshlari butunlay ko‘z oldiga keltirishmaydi deyдилar. Mustaqillimizni qadriga yetishimiz kerakligini doimo takrorlashadi. Yurtboshimiz o‘gil-qizlarni o‘shib rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi.

Ularni o‘qib, bilim olib, o‘z kelajagini poydevorini mustahkamlab olishga hamma imkoniyatlarni ochib berdi, buning uchun o‘z minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz. Bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalangan yoshlar ko‘p yutuqlarga erishmoqda. Noto‘g‘ri maqsadlarda foydalanish esa yomon oqibatlarga olib kelishi hammamizga ma’lum. Lekin tarbiyasi qiyin o‘smirlar bularni qo‘ldan boy berib qo‘yishmoqda. Tadqiqodlarning ko‘rsatishicha, tarbiyasi qiyin; injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabalari mavjud. Shaxsning biologik o‘shidagi nuqsonlar, va sezgi organlarining kamchiliklari, o‘qishga salbiy ta’sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyinlarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o‘shidagi kamchiliklar, aql-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo‘shligi, hissiyotning kuchsizligi zarur ehtiyoj va qiziqishlar mavjud emasligi, o‘smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o‘rtasidagi nomutanosiblikva boshqalar xatti-harakatni izdan chiqaradi. Shaxsning faziltlari tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy xislarning yetishmasligi, o‘qituvchi, sinf jamoalari, oila a’zolari bilan noto‘g‘ri muloqot, ishyoqmaslik, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri taqsimlamaslik va boshqalar salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi. Shaxsning bilim, o‘quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmasklik, eng muhim bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar, maktab faoliyatidagi va maktabdan tashqari muhitning ta’siridagi nuqsonlar tarbiyasi qiyin o‘smirlarni o‘smirlar ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. [3. 156-b.]

Yurtimizdagi keng imkoniyatlar o‘smirlarning psixik, fiziologik, ijtimoiy jihatdan erta rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Tartib qoidalarga so‘zsiz amal qilib yurgan samimiy o‘smir endi maktabda, oilada intizomsiz, qo‘rs, injiq bo‘lib qoladi. Ustozlar va ota-onasining koyishlari, tergashlari yoqmay qoladi. Ularda o‘z shaxsiy fikr paydo bo‘ladi, o‘z qadr-qimmatini haqida tushuncha paydo bo‘ladi. Organizmidagi gormonal o‘zgarishlar sabab o‘smir o‘ziga-o‘zi ham yoqmay qoladi. Ba’zan o‘smirlar o‘z ichki his-tuyg‘u va fikrlarini atrofdagilarga ifoda etishga qiynalishadi. Bunday paytda ota-onalar ularni to‘g‘ri tushunishi, do‘stona munosabatda bo‘lishi, ochiq muloqotni rag‘batlantirish orqali jarayonni osonlashtirishi mumkin. O‘smirga yaqinlari tomonidan ko‘satilgan mehr, ishonch bu davr qiyinchiliklarini yengishiga yordam beradi.

O‘smirlik davrida ijtimoiy tarmoq, ommaviy axborot vositalarining ta’siri haqida to‘xalib o‘tsak.

1-marotaba 1954-yilda “Ijtimoiy tarmoq” iborasi Jon Berns tomonidan ilgari surilgan. Bizning yurtimizga 20- asrda kirib kelgan. Tarmoqlari rang-barang va xilma – xildir. Hozirgi vaqtda ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy yoshlarni hayotining muhim qismini egallaydi. Ko‘plab so‘rovlar kuzatishlar va tadqiqodlar ko‘rsatishicha foydalanuvchilarning aksariyat qismini o‘smirlar tashkil qilar ekan. Ijtimoiy tarmoqlardan nazoratsiz, cheklanmagan holda foydalanish yomon oqibatlarga olib keladi.

-avvalambor vaqt tuyg‘usini yo‘qotadi.

Bir necha daqiqaga kirgan foydalanuvchi bir necha soatlab qolib ketganini hatto o‘zi sezmay qolishi mumkin.

-hech qanday maqsadsiz tarmoqqa kirishi.

-muloqot qobilyati yo‘qolishi turli xil kasalliklar miya faoliyatiga, ko‘z nuriga zarar yetkazishi

-yolg‘on gapirishga odatlanish kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

lekin to‘g‘ri foydalansa ijobiy tomonlari ham bor.

-muhim masalalar boyicha bilimlarini oshirish

-ijtimoiy aloqalarni yahshilash va ijodkorlikni oshirish ma’naviy dunyosini boyitishi

-masofadan turib do‘st orttirish, u bilan bog‘lanish, tajriba almashish

-o‘zi uchun kerakli ma’lumotlarni olishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda biz hohlardikki ota-onalar farzandlari bilan do‘stona aloqani o‘rnatib ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishlarini, ularga qarshi chiqmasligini, shunda har bir farzand ko‘chadan do‘st qidirmaydi. O‘smirlarga ta’lim tarbiya berishning ularga xos bo‘lgan usullardan foydalanish, xis-tuyg‘ularini qadrlash, hurmat qilish, kamsitmaslik, muloqot jarayonida ehtiyotkorlik bilan ish tutishimiz kerak ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch T “Manaviyat” 2008.
2. Z. Nishonova , D. Abdullayeva, G Bayqunusova, O‘smirlik davri psixodiagnostiksi va psixokorreksiyasi. Toshkent – 2015y.
3. E. G‘oziyev. Ontogenez psixologiyasi. T: 2010 y
4. M.G. Davletshin, Sh. Do‘stmammedova, M. Mavlonov
Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O‘quv metodik qo‘llanma. T: 2004 y.